IJTIMOIY ONG VA AXBOROT JAMIYATI

Sh.Sh.Usmanova, D.S.Igamberdiyev - Andijon davlat pedagogika instituti o‘qituvchilari;
Muxtorova Ismigul Axliddin qizi, Abdusalomova Zilolaxon Doniyorjon qizi - Fizika yo‘nalishi 101-guruh talabalari

Annotatsiya:Mazkur maqolada ijtimoiy ong tushunchasining mohiyati, uning shakllanish omillari hamda zamonaviy axborot jamiyati sharoitidagi roli tahlil qilinadi. Axborot texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida ijtimoiy ongda yuz berayotgan o‘zgarishlar, axborot erkinligi va nazorat muammolari, shuningdek, axborot madaniyatining falsafiy jihatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy ong, axborot jamiyati, axborot texnologiyalari, axborot madaniyati, falsafa, ong evolyutsiyasi, jamiyat taraqqiyoti

XX va XXI asrlarda axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi insoniyat tarixida yangi davr-axborot jamiyat davrini boshlab berdi. Bu davrda asosiy boylik va ijtimoiy resurs sifatida axborot va bilim ko‘tarilib, ijtimoiy munosabatlar, siyosat, iqtisodiyot va madaniyat tubdan o‘zgardi. Axborot jamiyati shakllanishi bilan birga, insonlarning ijtimoiy ongi ham yangicha mazmun va shaklga ega bo‘ldi.

Bugungi kunda axborot texnologiyalarining tez sur’atlarda rivojlanishi, internet va raqamli kommunikatsiyalarning keng tarqalishi natijasida yangi ijtimoiy tizim - axborot jamiyati shakllanmoqda.Bu yangi jamiyat modeli inson faoliyatining markazida axborot va bilim turishini anglatadi. Axborot jamiyatining asosiy elementi sifatida ijtimoiy ongning yangi shakllari yuzaga kelmoqda.

Falsafa ijtimoiy ongning mohiyatini, uning ijtimoiy hayotda o‘rni va axborot jamiyati bilan o‘zaro aloqasini chuqur o‘rganadi.Bu maqolada ijtimoiy ong va axborot jamiyati kontseptsiyalari, ularning o‘zaro bog‘liqligi va zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati falsafiy jihatdan tahlil qilinadi.

Ijtimoiy ong tushunchasi

Ijtimoiy ong – bu insonning jamiyatdagi o‘z o‘rnini anglash, ijtimoiy munosabatlarni idrok etish va ijtimoiy jarayonlarga ongli ta’sir ko‘rsatish qobiliyatidir. Falsafada ijtimoiy ong shaxsning ichki tafakkuri va uning jamiyat bilan uzviy bog‘liqligidan iborat murakkab jarayon sifatida qaraladi.

Marxistik falsafada ijtimoiy ong iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi, u jamiyatdagi sinflar o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi.Sotsiologiyada esa ijtimoiy ong jamiyatning umumiy ma’naviy va madaniy me’yorlari, qadriyatlari sifatida talqin qilinadi.

Bugungi kunda ijtimoiy ong kollektiv ong bilan chambarchas bog‘liq.Bu ong jamiyat a’zolari orasida shakllanib, jamiyatning rivojlanishi va barqarorligini ta’minlaydi.Ijtimoiy ongning shakllanishi va rivojlanishi madaniyat, ta’lim, axborot vositalari va kommunikatsiya tizimlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Falsafa fanida ong ikki bosqichda qaraladi:

1.Individual ong – bu har bir shaxsga xos fikrlash, anglash va idrok qilish tizimi.

2.Ijtimoiy ong – jamiyatda hukmron bo‘lgan umumiy g‘oyalar, tushunchalar va qadriyatlar yig‘indisidir.

Ongning shakllanishida ta’lim, madaniyat, din, ommaviy axborot vositalari va davlat mafkurasi muhim rol o‘ynaydi.

Axborot jamiyati tushunchasi

Axborot jamiyati – bu jamiyat hayotida axborot va bilimlar asosiy resurs va ishlab chiqarish omiliga aylangan bosqichdir.Bunday jamiyatda axborot texnologiyalari (kompyuterlar, internet, sun’iy intellect, tarmoqlar va h.k.) ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab oladi.

Axborot jamiyatining asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

Axborot va bilim asosiy resurs sifatida qaraladi;

Ishlab chiqarishning asosiy vositasi – texnologik emas, balki intellektual faoliyatdir;

Jamiyatda axborot oqimi kuchayadi, bu esa onglilik darajasini oshiradi;

Axborot madaniyati shakllanadi.

Axborot jamiyatida insonlar bir-birlari bilan tezkor muloqot qilish, o‘z fikrlarini erkin bildirish, bilim olish va ulashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.Shu bilan birga, noto‘g‘ri axborot tarqatish, axborot manipulyatsiyasi va nazorat kabi muammolar ham vujudga keladi.

Ijtimoiy ong va axborot jamiyati o‘zaro ta’siri

Axborot jamiyati ijtimoiy ongning shakllanishida yangi bosqichni boshlab berdi. Bugungi kunda odamlar hayoti ko‘proq virtual olam, internet, ijtimoiy tarmoqlar orqali tashkil etilmoqda. Natijada:

Jamiyatdagi ong ko‘proq ommaviy axborot vositalariga bog‘liq bo‘lib qoldi;

Axborot oqimi ko‘paygani sari inson ongi tanlab olish, tahlil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi zarur bo‘lmoqda;

Ongda yuzaga kelgan yengillik, yuzaki qarashlar, stereotiplarga moyillik muammolari paydo bo‘lmoqda.

Bunday sharoitda ijtimoiy ongni sog‘lom rivojlantirish uchun quyidagi omillar muhim:

Axborot madaniyatini shakllantirish;

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;

Ommaviy axborot vositalaridan ongli foydalanish;

Falsafiy bilimlarni oshirish.

Shu sababli, ijtimoiy ongni axborot jamiyati sharoitida barqaror rivojlantirish uchun ma’naviy-ma’rifiy ishlar, milliy qadriyatlarga asoslangan mafkura va sog‘lom axborot muhiti zarur.

Ijtimoiy ong va axborot jamiyati o‘zaro bog‘liq tushunchalardir.Ijtimoiy ong insonning jamiyatdagi mavjudlikni anglash shakli bo‘lsa , axborot jamiyati uni shakllantiruvchi zamonaviy zamonaviy sharoitdir.Bugungi kunda ongning shakllanishiga axborot texnologiyalari, internet, media, ommaviy madaniyat kuchli ta’sir o‘tkazmoqda. Shu bois, ijtimoiy ongni sog‘lom shakllantirish uchun milliy mafkura, ta’lim, axborot madaniyati va tanqidiy fikrlash madaniyatiga katta e’tibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo‘rayev.R , G‘ofurov.B. – Falsafa asoslari , Toshkent: ’’O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi’’ nashriyoti , 2008.

2. Nishonov.I , Yusupov.E. – Falsafa ,Toshkent:O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi , 2016.

3. Quronov.H. — Axborot madaniyati asoslari , Toshkent: “Fan va texnologiya” 2012.

4. Mamarasulov.Q. – Axborot jamiyati: nazariya va amaliyot, Toshkent: “Akademnashr”, 2019.

5. Xaitov.E. – Ijtimoiy ong va g‘oya , Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2014.